O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI
VOBKENT TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko’chasi 55-uy, tel: (65) 33-21-550, vobkent.t@exat.uz

2022 - yil 3 - mart 87-2-33-Q/22 Vobkent tuman hokimligi

Buxoro viloyati hokimining 2022-yil 28-fevraldagi 81-2-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-fevraldagi “2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-134-sonli hamda viloyat hokimining 2022-yil 28-fevraldagi 81-2-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Buxoro viloyati hokimining 2022-yil 28-fevraldagi 81-2-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Joylarda Navro‘z umumxalq bayramini yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha alohida e’tibor qaratiladigan masalalar belgilab berilganligi;

2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy qo‘mita tarkibi 1-ilovaga;

2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramini o‘tkazish bo‘yicha "Yo‘l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. 2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga;

2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramini o‘tkazish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman komissiyasi (G‘.Djunaitov) 2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayrami

mamlakatimizda “Assalom, Navro‘z - yangilanish, mehr-oqibat va qadr-qimmat ayyomi!” degan bosh g‘oya asosida umumxalq sayillari shaklida ko‘tarinki ruhda va yuqori saviyada tuman markazi, shuningdek, barcha qishloqlarda keng nishonlanishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari G‘.Djunaitov, tuman madaniyat bo‘limi (I.Baxronov)ga:

besh kun muddatda Navro‘z umumxalq sayillarini o‘tkazish bo‘yicha tuman chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqib, tasdiqlash;

chora-tadbirlar dasturida:

Navro‘z umumxalq sayillari o‘tkaziladigan asosiy maydonlar, xiyobonlar va ko‘chalarni belgilash, ularni milliy uslubda bayramona bezatish hamda sahnalarni o‘rnatish;

joylarda bo‘lib o‘tadigan umumxalq sayillariga mahalliy folklor guruhlari, badiiy havaskorlik jamoalari, sirk san’ati ustalari, oilaviy ansambllar, baxshilar, shoirlar, shuningdek, professional ijrochilar va iste’dodli estrada artistlarini belgilangan tartibda keng jalb etish;

bayram tadbirlari doirasida har bir hududga xos bo‘lgan xalq o‘yinlari, tomoshalar, ko‘rgazmalar o‘tkazish, bahoriy taomlar sotiladigan ochiq oshxonalarni joylashtirish nazarda tutilishi;

bayram dasturlarini va ommaviy tomoshalarni tayyorlashda, ko‘chalar, xiyobonlar va maydonlarni bezatishda malakali mutaxassislardan iborat ijodiy guruhlarni keng jalb etish choralarini ko‘rsin.

6. Tuman ichki ishlar bo‘limi (O‘.Soyibov), tuman sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi (Sh.Nabiyev) lariga barcha tadbirlar karantin qoidalari va jamoat xavfsizligi talablariga qat’iy rioya qilgan holda o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosarlariga:

Navro‘z kunlarida inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, ona zaminga mehr va e’tibor yaqqol o‘z ifodasini topishini aks ettiradigan, atrof-muhitni, uning ne’matlarini asrab-avaylash, bugungi tinch hayotni qadrlab, shukronalik tuyg‘usi bilan yashashga, inson qadrini ulug‘lashga da’vat etadigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni uyushtirish;

so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar, xalqimizning hayoti, qalbi va ongida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni Navro‘zning azaliy qadriyat va an’analariga hamohang tarzda, ta’sirchan usullarda ifoda etish;

bayram munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylari, keksa avlod vakillarini har tomonlama e’zozlash, Mehribonlik va Muruvvat uylari tarbiyalanuvchilari, Saxovat uylarida yashayotganlar, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Mehr daftari”ga kiritilgan hamda ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga beg‘araz yordam berish bilan bog‘liq xayriya tadbirlarini amalga oshirish;

mamlakatimizda boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlarni uyushtirish;

belgilangan tartibga rioya qilingan holda Navro‘z umumxalq bayrami arafasida har bir ko‘cha, mahalla, tumanda obodonchilik va ko‘kalamzorlashtirishga qaratilgan umumxalq hasharlarini o‘tkazish;

millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning amaliy natijalari, yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarining Navro‘z umumxalq bayramini nishonlashga oid urf-odatlari, an’ana va qadriyatlarini keng namoyish etish;

bayram tadbirlari bo‘lib o‘tadigan joylarda hunarmandchilik ko‘rgazmalari, milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish, kitob rastalari, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil qilish, ko‘klam taomlarini tayyorlash va ularning savdosini yo‘lga qo‘yish;

barcha mahalla va qishloqlarda o‘tkaziladigan bayram tadbirlarida, ommaviy axborot vositalarida Navro‘z bayramining tarixi, har bir hudud aholisi o‘rtasida uni nishonlash bilan bog‘liq urf-odat va an’analarning mohiyati va ahamiyatini keng yoritish topshirilsin.

8. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Malikov, tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Barotov)ga Navro‘z bayramini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni mahalliy budjet hisobidan qoplashni ta’minlasin.

9. Tuman hokimligi matbuot kotibi (Sh.Sharopov), “Vobkent hayoti”tuman gazetasi tahririyati (O‘.Istatov)ga Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot

vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali atroflicha yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari G‘.Djunaitov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **F.Umarov**

Vobkent tuman hokimining
2022 yil 3 martdagi
87-2-33-Q/22-son qaroriga
1-ilova

2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi

TARKIBI

F.Umarov	-	tuman hokimi, ***tuman komissiyasi raisi***
G‘.Djunaitov	-	tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, ***tuman komissiyasi raisining o‘rinbosari***
I.Baxronov	-	tuman madaniyat bo‘limi boshlig‘i, ***komissiya kotibi***

A’ZOLARI:

R.Azamatov	-	tuman hokimining o‘rinbosari
Sh.Islomov	-	tuman hokimining o‘rinbosari
B.Yusupov	-	tuman hokimining o‘rinbosari
M.Halimov	-	tuman hokimining o‘rinbosari
Sh.Zaripov	-	tuman hokimligi apparati tashkiliy-nazorat guruhi rahbari
Sh.Sharopov	-	tuman hokimligi apparati matbuot xizmati kotibi
O‘.Soyibov	-	tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
A.Boymurodov	-	tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
O.Muqimov	-	tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i
A.Barotov	-	tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri
Sh.Husenov	-	tuman xalq ta’limi bo‘limi mudiri
N.Fayziyev	-	tuman jismoniy tarbiya va sport ishlari bo‘limi boshlig‘i
Sh.Rajabov	-	tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
Sh.Nabiyev	-	sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi tuman bo‘limi boshlig‘i
N.Rustamov	-	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi rahbari
N.Qo‘ldoshev	-	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
U.Qayimov	-	Yoshlar ittifoqi tuman Kengashi raisi
L.Istamov	-	Vobkent tuman sanoat va transport texnikumi direktori
F.Safarov	-	Vobkent tuman pedagogika kolleji direktori
N.Jo‘rayev	-	Vobkent tuman 1-son kasb-hunar maktabi direktori
O.Baqoyev	-	Vobkent tuman 2-son kasb-hunar maktabi direktori
O‘.Istatov	-	“Vobkent hayoti” tuman gazetasi bosh muharriri
Lavozimiga ko‘ra	-	tumandagi tarmoq kasaba uyushmalari tashkilotlar raislari
Lavozimiga ko‘ra	-	tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari

Izoh: *Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga tayinlangan shaxslar kiritiladi.*

Vobkent tuman hokimining
2022 yil 3 martdagi
87-2-33-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Vobkent tumanida 2022 yilgi Navro‘z umumxalq bayramini o‘tkazish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

№	Chora tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbai	Ma’ullar
1.	Tumanda Navro‘z umumxalq bayramini mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirish bo‘yicha olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning amaldagi ifodasi sifatida yuqori saviyada o‘tkazish.	1. Tuman tashkiliy qo‘mitasi tarkibini shakllantirish. 2. Navro‘z bayramini yuqori saviyada nishonlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 3. Chora-tadbirlarning ijrosini ta’minlash.	2022 yil mart	-	Tuman hokimining o‘rinbosari G‘.Djunaitov, tuman madaniyat bo‘limi (I.Baxronov), tegishli korxona va tashkilotlar
2.	“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Navro‘z bayrami arafasida barcha shahar va qishloqlarda, mahallalarda umumxalq hasharlari, keng qamrovli obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari, ta’lim muassasalarining o‘quvchi va talabalari ishtirokida “Mahallamga nihol ekaman!” aksiyasini o‘tkazish.	1. Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, tasdiqlatish. 2. Tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	2022 yil fevral- aprel	Mahalliy budjet mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, tashkilotlarning o‘z mablag‘lari	Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tuman xalq ta’limi bo‘limi (Sh.Husenov), tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Yu.Zuxurova), tuman hokimligi moliya bo‘limi (A,Barotov), tegishili korxona va tashkilotlar

№	Chora tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbai	Ma’ullar
3.	Mahallalar, ko‘chalar, xiyobonlar hamda madaniyat va istirohat bog‘lari hududini Navro‘z bayrami mazmun-mohiyatiga mos ravishda bezatish.	1. Mahallalar, ko‘chalar, xiyobonlar va boshqa ijtimoiy ob’ektlarni bayramga tayyorlash, hududlarni bayramona bezatish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Rejada belgilangan ishlarni amalga oshirish.	2022 yil mart Reja asosida	Mahalliy budjet mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, tashkilotlarning o‘z mablag‘lari	Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Yu.Zuxurova), tuman hokimligi moliya bo‘limi (A,Barotov), tegishili korxona va tashkilotlar
4.	Navro‘z bayrami munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylari, keksa avlod vakillarini har tomonlama e’zozlash, Mehribonlik va Muruvvat uylari tarbiyalanuvchilari, Saxovat uylarida yashayotganlar, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Mehr daftari"ga kiritilgan hamda ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish hamda taniqli san’atkorlarning ushbu muassasalarga tashriflarini tashkil qilish bilan bog‘liq xayriya tadbirlarini amalga oshirish.	1. Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Tadbirlarni amalga oshirish va ommaviy axborot vositalarida kengyoritish.	2022 yil mart	Mahalliy budjet mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, tashkilotlarning o‘z mablag‘lari	Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Yu.Zuxurova), tuman hokimligi moliya bo‘limi (A,Barotov), Milliy gvardiya tuman bo‘limi (O‘.Raximov), tuman madaniyat bo‘limi (I.Baxronov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (N.Qo‘ldoshev), tuman tibbiyot birlashmasi (Sh.Rajabov), tuman tarmoq kasaba uyushmalari raislari, tegishili korxona va tashkilotlar

№	Chora tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbai	Ma’ullar
5.	Navro‘z umumxalq bayrami munosabati bilan arzonlashtirilgan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil qilish, Navro‘z taomlarini tayyorlash hamda ularning savdosini yo‘lga qo‘yish.	1. Savdo yarmarkalari tashkil etiladigan bozorlar ro‘yxatini shakllantirish. 2. Fermer xo‘jaliklari va oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni yarmarkalarga jalb etish. 3. Navro‘z taomlarini tayyorlash va ularning savdosini tashkil qilish.	2022 yil mart	-	Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (A.Safarov), tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (B.Vafoyev), Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari tuman Kengashi (A.Mirakov), tegishili korxona va tashkilotlar
II. Ommaviy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot-tashviqot tadbirlari					
6.	Tumandagi madaniyat va istirohat bog‘larida dorbozlar, polvonlar, sirk jamoalari, folklor-etnografik ansambllar, taniqli san’atkorlar, estrada xonandalari va baxshilarning chiqishlarini tashkil etish.	1. Madaniy dasturlar rejasini ishlab chiqish. 2. Madaniy dasturlarni amalga oshirish.	2022 yil mart	Mahalliy budjet mablag‘lari, tashkilotchilarning o‘z mablag‘lari	Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Yu.Zuxurova), tuman hokimligi moliya bo‘limi (A,Barotov), tuman madaniyat bo‘limi (I.Baxronov), tegishili korxona va tashkilotlar
7.	Tuman miqyosida madaniyat va san’atning musiqa, teatr, kino, tasviriy va amaliy san’at, sirk, xalq badiiy ijodiyoti, milliy kiyimlar namoyishi yo‘nalishlari bo‘yicha "Har kuning bo‘lsin, Navro‘z" shiori ostida madaniy tadbirlar va ko‘rgazmalar uyushtirish.	1. Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Tadbirlarni o‘tkazish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	2022 yil mart	Mahalliy budjet mablag‘lari, tashkilotchilarning o‘z mablag‘lari	Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Yu.Zuxurova), tuman hokimligi moliya bo‘limi (A,Barotov), tuman madaniyat bo‘limi (I.Baxronov), tegishili korxona va tashkilotlar

№	Chora tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbai	Ma’ullar
8.	Navroʻz sayillari oʻtkaziladigan joylarda milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi koʻrgazmalar, kitob rastalarini tashkil qilish.	1. Navroʻz sayillari oʻtkaziladigan asosiy maydonlar, xiyobonlar va koʻchalarni belgilash va ularni milliy uslubda bayramona bezatish. 2. Tasdiqlangan reja asosida tadbirlarni oʻtkazish.	2022 yil mart	Mahalliy budjet mablagʻlari, tashkilotchilarning oʻz mablagʻlari	Tuman hokimining oʻrinbosarlari, Ma’naviyat va ma’rafit markazi tuman boʻlinmasi (N.Rustamov), tuman madaniyat boʻlimi (I.Baxronov), tegishili korxona va tashkilotlar
9.	Navroʻz bayrami munosabati bilan sumalak va bahoriy noz-ne’matlarni targʻib etuvchi "Bahor ne’matlari" koʻrgazmalari hamda "Eng yaxshi Navroʻz taomlari" tanlovlarini oʻtkazish.	1. Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Tadbirlarni oʻtkazish va tanlov gʻoliblarini munosib taqdirlash.	2022 yil mart	Tashkilotchilarning oʻz mablagʻlari	Tuman hokimining oʻrinbosarlari, tuman madaniyat boʻlimi (I.Baxronov), tegishili korxona va tashkilotlar
10.	Mahallalarda oʻzining ezgu fazilatlari hamda erishayotgan yutuqlari bilan koʻpchilik orasida katta hurmat qozongan insonlarning hayotiy tajribasini ommalashtirishga qaratilgan uchrashuvlar tashkil etish.	1. Uchrashuvlar rejasini ishlab chiqish. 2. Uchrashuvlarni yuqori saviyada oʻtkazish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	2022 yil mart	Mahalliy budjet mablagʻlari, tashkilotchilarning oʻz mablagʻlari	Tuman hokimining oʻrinbosarlari, tuman mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash boʻlimi (Yu.Zuxurova), tuman madaniyat boʻlimi (I.Baxronov), tegishili korxona va tashkilotlar
III. Yoshlar uchun moʻljallangan tadbirlar					
11.	Mahallalarda yashayotgan yoshlar oʻrtasida uloq-koʻpkari, poyga, kurash, chillak, arqon tortish va boshqa milliy sport oʻyinlari boʻyicha musobaqalar va koʻrgazmali chiqishlar tashkil etish.	1. Musobaqa va koʻrgazmali chiqishlar oʻtkaziladigan joylarni aniqlash. 2. Musobaqa va koʻrgazmali chiqishlarni yuqori saviyada oʻtkazish.	2022 yil mart	Tashkilotchilarning oʻz mablagʻlari	Tuman hokimining oʻrinbosarlari, tuman mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash boʻlimi (Yu.Zuxurova), tuman turizm va sport boʻlimi (I.Baxronov), tegishili korxona va tashkilotlar